

CHO'LPON SHE'RIYATI

Shoymardonova Fotima

Surxondaryo viloyati. Termiz shahri.

Termiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon she'riyati haqid fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Adabiyot, poetik olam, istiqilol, xalq, tashbeh, she'riyat, Abdulhamid Cho'lpon*

Adabiyot so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Shu bois, adabiyot tobora shaxs adabiyoti bo'lib bormoqda. U alohida insonni – shaxsni tadqiq etishga tutunmoqda. Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari deb ta'riflanishi bejiz emas albatta.

Adabiyotimizning yirik vakillaridan biri shoir, dramaturg, tarjimon Cho'lpon XX asr O'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi. Uning lirikasiga nazar tashlar ekanmiz, go'zal she'rlar, takrorlanmas tashbehlar, ajoyib ramzlarga ko'zimiz tushadi. Ijodkorning she'rlarini tahlil qilishdan oldin biz uni hayot yo'llari haqida, u yashagan davrni to'laqonli tasavvur etishimiz kerak. Chunki har qanday ijodkorning xoh u she'ri bo'lsin, xoh asari bo'lishidan qat'iy nazar o'sha ijodkor yashagan davr nuqtayi nazaridan yondashib tahlil etishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yangi o'zbek she'riyatida Abdulhamid Cho'lponning mavqeyi alohida. Ulug' shoir dolg'ali dengiz to'lqinlari yanglig' ko'pirib-toshgan tuyg'ularini, bamisoli sarobday yetib bo'lmas orzularini, ko'nglini o'rtagan cho'ng armonlarini poetik ramzlar tiliga ko'chirdi. "Chin yurak va his shoiri" o'laroq millatning yuragini istibdod zanglaridan tozalamoq istadi, uning histuyg'ularini istiqilol yolqini bilan yoritdi. "Buloqlar" to'plami chop etilishi munosabati bilan zamondoshi Vadud Mahmud: "Cho'lpon o'zbekning yangi shoiridir. Shuning uchun o'zbek elining bu kungi ruhi, holi, sezgisi "Buloqlar"da qaynaydir. O'zbek tili, o'zbek ohangi "Buloqlar"da sayraydir, o'quydir. O'zbekning ruhiy to'lqinlari bunda ko'puradir, ko'klar tomon uchadir, ko'tariladir", deganida yuz karra haq edi.

sadga muvofiq bo'ladi. Cho'lpon tug'ilgan sanani ko'rsatishda har xilliklar yuzaga kelmoqda. Ya'ni ba'zi adabiyotshunoslar, xususan, adabiyotshunos Naim Karimov shoirning tug'ilgan sanasini 1898-yil deb ko'rsatishga urina boshladi. Naim Karimov o'z qarashini tasdiqlashda, "Cho'lpon" nomlari ma'rifat romanida ko'proq shoirning qarindosh-urug'lari, yaqinlari so'zlab bergan xotiralarga tayanadi. Adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov esa, Cho'lponning tug'ilgan sanasi 1897-yil ekanligi to'g'risidagi xulosasini chiqarganda to'lig'icha shoirning o'zi aytgan yoki so'zlab bergan ma'lumotlarga suyanadi. Uning aniqlashicha, turli arxivlarda Cho'lponning "Xalq dushmani" sifatida aylanib, tergov qilinayotgan chog'da o'z qo'li bilan to'ldirgan anketasi bor ekan. O'sha anketada Cho'lpon o'zining tug'ilgan sanasini

1897-yil deb ko'rsatgan ekan. Ikkinchidan ma'lum vaqt Cho'lpon bilan hamkorlik qilgan mashhur rus yozuvchisi V.Yan shoir to'g'risidagi 30-yillarda nashr etilgan "Katta sovet ensklopediyasi" uchun yozgan maqolasida Abdulhamidning o'zi bergan ma'lumotlarga asoslanib uning tug'ilgan sanasini 1897-yil deb ko'rsatgan ekan.

Yaqinlarining ma'lumotlaridan ko'ra o'zi aytgan ma'lumot, albatta, ishonchli va haqqoniy hisoblanadi. Shuning uchun uning tug'ilgan sanasi 1897-yil deb ko'rsatiladi. Achinarlisi shundaki, Cho'lpon ham xalqimizning boshqa ko'pgina asl farzandlar kabi Stalin qirg'ininig qurboni bo'ldi, 1938-yili "Xalq dushmani" sifatida otildi, asarlarini nashr etish, nashr etilganlarini o'qish va umuman, Cho'lpon nomini tilga olish qat'iyani taqiqlandi. Haq gapni ayta olgan insonlar har qanday zamonlarda ham odamlarga yoqavermagan. Shuning uchun ham erk farzandi, istiqbol uchun kurashgan Cho'lponni ham mana shunday ayanchli o'lim kutib turgani hech shubhasiz edi. Shuni aytish mumkinki, mana shunday holatlar, ya'ni uni ta'qib etishlari, "Xalq dushmani" sifatida qoralashlari ham shoir qaddini buka olmaydi. Shoir ijoddan bir lahza ham to'xtab qolmaydi. Shunday holatlardan bo'lsa kerak, shoirning hamma bitgan she'rlarida erkka intilishini, xalqni birlikka chorlash, o'z xalqini hech kimdan kam emasligini ko'rsatish tuyg'ulari yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Cho'lpon, el – shamol, qon, bulut, ko'lanka, yo'lchi, yulduz, tong, tun, quyosh, timsollarini yangi-yangi hayotiy haqiqat va maqsadlar uchun xizmat qildirgan olgan simvolist shoiridir. "Lekin Cho'lpon simbolizmi real zaminda turadi, chunki ramzlari – obrazlari hayotdan, tabiatdan olingandir. Shu bois ham shoir "Qushning hadigi'ni tasvirlash orqali jamiyatda erksizlik kuchayotganini, "Binafsha" orqali inson qadri-yu shani toptalyotganini, "somon parcha" orqali jamiyatda shaxlik maqomi bekor bo'layotgani haqidagi tshvish-u alamlarni ifodalay oldi. Ya'ni u chinakam sa'natkor sifatida analogiyalar yordamida obrazli tafakkur qildi va shu tufayli ham o'z ijodi bilan she'riyatni san'at tomon burdi". Shuni alohida qayd etish kerakki, obrazda yangilik qilish shakldagiga qaraganda birmuncha murakkab hodisa sanaladi, lekin she'riyatning chin ma'noda yuksalishi va yangilanishi ana shu poetik hodisaga ko'proq bog'liqdir.

Cho'lpon ona yurt boshiga tushgan fojiani butun dahshati, bor mohiyati bilan ochib beradi. "Cho'lpon – Cho'lpondir" fiqrasida Ahmad Shukriy shoirni Shekspirga qiyoslagani bejiz emas. "Cho'lpon oti qulog'imga kirdikcha Shekspir ruhi ko'rinadir-da turadir, – deb yozgan edi muallif. – Shekspir lirizmasi bilan Cho'lpon she'riyati orasinda naqadar ayirma axtarsam-da, oni topa olmadim. "Uyg'onish"ni necha topqirlar o'qib chiqdim. Shekspirni mutolaa etdim. Eng so'ng Shekspir Cho'lpondir yoxud Cho'lpon Shekspirdir fikriga keldim.

Cho'lponning ijodiy uslubini belgilashda uning millat va mamlakat hayoti, taqdiri va istiqbolini ifodalovchi g'oyalar, mavzularning badiiy-estetik talqinini voqelikka estetik munosabat qonuniyati asosida tahlil qiladi. Cho'lpon qaysi mavzu, muammoga qo'l urmasin, u Sharqu-G'arb muammolari bo'ladimi, tabiat manzarasimi, ishq-muhabbat kechinmalarimi, millat tarixi yoki istiqbolimi, erk orzusimi – barchasida shoir millatparvar lirik qahramon siyomosida namoyon bo'ladi.

O'zining har bir asari bilan Cho'lpon xalqimiz uchun og'ir sinov davri hisoblangan 20-30 yillarda chin vatanparvar, haqiqiy istiqlol kuychisi va kurashchisi sifatida namoyon bo'ldi. Bugun uning qadriga yetish, ardoqlash, vasiyatlarini amalga oshirib, mustaqilligimizni mustahkamlash biz, farzandlarining muqaddas burchidir. Cho'lpon yillar, asrlar o'tgan sari qadri va qimmatini oshib boraveradigan noyob xazinadir. Undan har kim o'z nasibasi va ehtiyojiga yarasha rizqini ushatib olaveradi. Bundan esa xazinaning boyligi aslo kamayib qolmaydi, bil'aks, ko'payadi xolos.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Cho'lpon she'ryatida o'sha davr muommalari xalqning tutqinligi, bosqinchilar azoblaridan kuygan va bu azoblarni yorqin go'zal sherlarida ochib xalqni uyg'otishga vatanni saqlab qolishga undagan. Sharqning yozini ham, kuzi va qishini ham tilga olar ekan, shoir lirik qahramon tilidan fasllarning barchasida ingrab yotgan Sharq obrazini ochib berishga harakat qiladi. Bir o'rinda Sharq qoloqligidan aksincha, ikkinchi o'rinda yaralangan Sharq tanasiga malham bo'lgisi keladi, xasta, tutqun Sharqning ahvoliga achinadi. Bu davrdagi fojialardan ogoh qilgan va undagan buyuk ijodkordir. O'zi ham bu yo'lda hech narsadan tap tortmay hatto jonini fido qilib bo'lsa ham xalqni uyg'otishga chaqirgan. Sharqning erk kuychisi desak aslo adashmaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Афақова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърлий шакллар тараққиёт тамойиллари: Филол. фанлари доктори ... дис. – Т.: 2006
2. Аҳмад Шукрий. Чўлпон – Чўлпондир. / Чўлпон ва танқид (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муалифи Б.Каримов). –Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2004.
3. Зариф Башир. Ўзбек шоири Чўлпон шеърлари. /Чўлпон ва танқид. – Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2004. 4. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари.– Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
4. Шарафиддинов О. Довондаги ўйлар. – Тошкент: Маънавият, 2004.
5. Вадуд Маҳмуд. Чўлпоннинг “Булоқлар”и. /Чўлпон ва танқид. – Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2004.